



Historical and evolutionary factors of speech etiquette and forms of address

Uktamov MUKHAMMADKARIM¹

Central Asian Medical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

10 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

etiquette,
speech etiquette,
forms of address,
historical evolution,
linguistic development,
cultural influence,
politeness,
communication behavior,
communication etiquette,
addressee,
addresser.

ABSTRACT

This article analyzes the historical evolutionary factors of speech etiquette and forms of address. It examines how social, cultural, and linguistic influences shaped the development of speech culture, address forms, and norms of politeness from ancient written records to the formation of modern language. The article highlights how political, cultural, and social conditions of different eras influenced the diversity and systematic evolution of address forms. Speech etiquette and address forms are fundamental components of communication in any society. They express respect, politeness, and adherence to ethical rules in interpersonal communication. Over time, these concepts have developed in accordance with social and cultural circumstances, forming a crucial part of language culture. The article explores how speech etiquette and address forms underwent evolutionary changes during various historical stages.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6/S-pp114-118>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Nutqiy etiket hamda murojaat shakllarining tarixiy-tadrijiy omillari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

etiket,
nutqiy etiket,
murojaat shakllari,
tarixiy tadrij,
lingvistik rivojlanish,
madaniy ta'sir,
politeness,

Ushbu maqolada nutqiy etiket va murojaat shakllarining tarixiy tadrijiy (rivojlanish) omillari tahlil qilinadi. Qadimiy yozma manbalardan tortib, zamonaviy tilning shakllanishigacha bo'lgan davr mobaynida nutq madaniyati, murojaat va odobiy me'yorlarining ijtimoiy, madaniy, va lingvistik omillar ta'sirida qanday o'zgarib borganini ko'rsatiladi. Maqolada turli davrlarda hukmron bo'lgan siyosiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlar

¹ Teacher, Central Asian Medical University. E-mail: uktamovmuhammadkarim@gmail.com

muloqot xulqi,
muloqot odobi,
adresat,
adresant.

murojaat shakllarining rang-barangligi va uning tizimli rivojiga qanchalik ta'sir ko'rsatgani yoritiladi. Nutqiy etiket va murojaat shakllari har qanday jamiyatda muloqotning asosiy qismidir. Ular insonlarning o'zaro muloqotida hurmat-izzatni, axloqiy qoidalarga rioya qilishni ifodalaydi. Tarix davomida bu tushunchalar ijtimoiy va madaniy sharoitlarga bog'liq holda rivojlanib, til madaniyatining muhim qismi sifatida shakllangan. Ushbu maqolada turli tarixiy bosqichlarda nutqiy etiket va murojaat shakllarining qanday tadrijiy o'zgarishlarga uchragani tahlil qilinadi.

Историко-эволюционные факторы речевого этикета и форм обращения

Ключевые слова:

этикет,
речевой этикет,
формы обращения,
историческая эволюция,
языковое развитие,
культурное влияние,
вежливость,
коммуникативное
поведение,
коммуникативный этикет,
адресат,
адресант.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются исторические и эволюционные факторы, повлиявшие на формирование речевого этикета и форм обращения. Рассматривается, каким образом социальные, культурные и лингвистические влияния способствовали развитию речевой культуры, форм обращения и норм вежливости – от древних письменных источников до современного языка. Особое внимание уделяется тому, как политические, культурные и социальные условия различных эпох определяли многообразие и системное развитие форм обращения. Речевой этикет и формы обращения являются неотъемлемыми элементами коммуникации в любом обществе. Они отражают уважение, вежливость и соблюдение этических норм в межличностном общении. Со временем эти элементы развивались в соответствии с социальными и культурными изменениями, становясь важной частью языковой культуры.

В статье также исследуется, как речевой этикет и формы обращения эволюционировали на разных исторических этапах.

Tilshunoslikda “nutqiy etiket” tushunchasi haqida so‘z yuritilar ekan, dastlab “etiket” tushunchasiga to‘xtalish joiz. Chunki nutqiy etiket – umumetiketning tarkibiy qismlaridandir. Etiket – xulq-atvor standarti, u, ozmi-ko‘pmi, ritualizatsiya qilingan mazmunli muloqot shakli. Etiket qoidalarining maqsadi nima? Faylasuflar etiket qoidalari bilan yaqinlashish, ba‘zan esa unga bevosita murojaat qilish g‘oyaning ustunligi deb qarashadi. Tilshunoslar esa, etiketni muloqotning tarkibiy qismi hamda samarali muloqot o‘rnatish nazoratchisi deb hisoblashadi. O‘zbek tili izohli lug‘atida “etiket”ga quyidagicha ta‘rif berilgan: “ETIKET I [fr. etiquette – odob-axloq; marosim tartibi] Biror jamiyatda, ijtimoiy guruh va sh.k.da qabul qilingan o‘zaro muomala, odob-axloq; marosim tartibi, qoidalari. Saroy ahliga xos etiket. Diplomatik etiket.” Bizningcha ham, etiket xulq-atvor qoidalari majmuasi, insonlarga munosabatni sirtidan namoyon qilish, chunonchi, boshqalar bilan muomalada, murojaat va salomlashish shakllarida, jamoat joylarida o‘zini tutish, odob-ahloq va kiyinish kabilar.

Etiket qoidalari jamiyatning tashqi ajralmas qismi, ular muloqot paytida odamlar o'rtasida o'zaro tushunishga yordam beradigan ba'zi hatti harakatlar qoidalarini shakllantirish va qo'llashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Jumladan, ingliz tilidagi entsiklopedik izohli lug'atlarda shunday deyiladi: "Etiquette is the set of conventional rules of personal behaviour in polite society, usually in the form of an ethical code that delineates the expected and accepted social behaviours that accord with the conventions and norms observed by a society, a social class, or a social group. In modern English usage, the French word etiquette (ticket) dates from the year 1750." V.E. Goldinning fikricha, "etiket qoidalari mavjud qadriyatlar tizimiga bo'ysunadi, ularni aks ettiradi, mustahkamlaydi". Unga ko'ra, etiket qoidalari mavjud qadriyat tizimini qabul qilish, uning ko'rsatmalariga rioya qilish va so'zlovchi o'zini o'sha jamiyat a'zosi o'laroq tan olish demak.

Ta'kidlash joizki, etiket axloq me'yorlaridan farq qiladi. Masalan, siz axloq normalariga rioya qilgan holda etiket qoidasini buzishingiz mumkin (harbiy salomga javoban qo'l silkitish, ikkala ishtirokchi ham harbiy xizmatchi bo'lsa), yoki, aksincha, etiket qoidalariga rioya qilgan holda axloq normalarini buzishingiz mumkin (samimiy salomga javoban bosh irg'ab qo'yish).

Etiket qoidalarini insonning asosiy aloqa vositasi sanalmish – til bilan taqqoslab o'rganish, nafaqat etiket qoidalarini, balki o'zini ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Agar etiket qoidalari xulq-atvorning belgilangan tartibi sifatida tushunilsa, nutq etiketi tushunchasi noaniq bo'lib qoladi. Nutqiy etiket kontseptsiyasiga nisbatan torroq yondashish, uni nutq xulq-atvori o'laroq izohlab, xususiyatlarni barqaror formulalar orqali avtomatik tarzda ko'paytirish deb tushuniladi. Keng yondashish orqali esa u "muloqot jarayonida muayyan vaziyatda aniq manzil uchun so'zlovchi eng mos, eng munosib til birligini tanlashni tartibga soladi". Fikrimizcha, nutqiy etiket tushunchasini "xushmuomalalik kategoriyasi"dan ajratish maqsadga muvofiq, chunki xushmuomalalik toifasi nafaqat nutqiy etiketning barqaror, muntazam takrorlanadigan formulalariga, balki kommunikatorlarning tashqi qiyofasi, ularning xulq-atvori qoidalari va muloqotning og'zaki bo'lmagan tarkibiy qismlariga ham taalluqli.

Nutqiy etiket har doim til sohiblari va yozuvchilarning e'tiborida bo'lib kelgan, ammo uning ilmiy rivojlanishi faqat XX asrning ikkinchi yarmida boshlandi. V.S. Kostomarovning 1967-yilda nashr etilgan "Russkiy rechevoy etiket" nomli maqolasi bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning debochasi edi. O'sha vaqtdan boshlab lingvistik bilimlarning maxsus sohasi – nutqiy etiket paydo bo'ldi (bu termin 1960-yillarning ikkinchi yarmida ham qo'llana boshladi).

"Nutqiy etiket" ingliz tilshunosligida "politeness" (hushmuomalalik) termini ostida XX asrning 60-yillardan iste'molga kirdi va alohida ta'limot sifatida shakllandi. Bunga tadqiqotchilar kaliforniyalik R. Lakoff, amerikalik P. Braun, britaniyalik S. Levinson va G. Lich larning ishi asos bo'ldi. Ta'kidlash kerakki, "Politeness" nutqiy etiketdan kengroq tushuncha. Nutqiy etiket nazariyotchilaridan R. Lakoff uni "jamiyatda rivojlangan yaxshi xulqatvor ko'rinishi" shaklida ta'riflaydi hamda "insonlar o'zaro muloqotidagi ziddiyatlarni kamaytirish maqsadida o'rganilishi zarur mavzu" deb biladi.

Tilshunoslikka oid ensiklopedik lug'atda "nutqiy etiket" (rechevoy etiket) terminiga keng va tor tarzda izoh beriladi. Ko'rinadiki, nutqiy etiket turli ijtimoiy vaziyatlarda qo'llanib, turg'un birikma shaklida mavjud bo'ladi. Ular nutqiy etiket shakllari deb ataladi.

Nutqiy etiketni tadqiq qilish nutqiy holatni va ularga xizmat ko'rsatuvchi nutqiy etiket formulalarini aniqlash, belgilash orqali amalga oshiriladi. Bunda "nutqiy etiket

tushunchasi ostida muloqotchilar o'rtasida aloqa o'rnatish borasidagi jamiyat tomonidan belgilangan va ma'qullangan, milliy o'ziga xoslik tizimidagi turg'un muloqot shakllarini boshqarish qonun-qoidalari" nazarda tutiladi.

Sharqda so'z va so'zlashuv madaniyatiga e'tibor juda qadimiydir. So'zning qudrati va uning kuchi doimo ziyoli, alloma va mutafakkirlar e'tiborida bo'lgan. Qadim Sharqda nutqiy etiket "nutq odobi", "so'z odobi" deb yuritilgan.

O'zbek nutqiy etiket tadqiqi uzoq o'tmish tarixiga ega. Bunga Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz ishlaridagi nutqning ta'sirchan bo'lishi, so'zlashish va so'z odobi xususidagi fikrlari misol bo'la oladi. Jumladan, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub", "Nazm ul-javohir" asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga, uning mukammallashishiga ham katta hissa qo'shgan: "Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur ..." (Mazmuni: til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar u o'rinsiz ishlatilsa, tilning ofati).

Yuqorida nomlari zikr etilgan allomalar ijodida nutqiy etiket alohida ob'ekt o'laroq o'rganilmagan bo'lsa-da, ularning ijodini nutqiy etiket nuqtai nazaridan tahlil qilish tadqiqotchilar uchun asos vazifasini bajarib kelmoqda.

S. Mo'minov nutqiy etiket terminini shartli ravishda "muloqot xulqi" deb qo'llaydi va uning mazmuniga quyidagicha izoh beradi: "Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter – millat aholisining o'ziga xos urf-odatlar, qadriyat va an'alarini hisobga olmasdan turib o'rganish mutlaqo mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi, ular birbiri bilan chambarchas bog'liq". Olim o'z tadqiqotlarida muloqot xulqi muammosining nazariy masalalari, psixolingvistik aspektlari, hudud va jins jihatdan xoslanishini tadqiq qilgan.

B. Rahmatillaeva esa nomzodlik dissertatsiyasida nutqiy etiketni o'zbek va rus tillarida chog'ishtirib, farqlanishini "diqqat-e'tiborini jalb qiluvchi so'zlar va murojaat shakllari vositasida ochib bergan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, adresat va adresantning etiket shakllarini tanlashi ularning ijtimoiy mavqei, yoshi, ta'lim-tarbiyasi, shuningdek, tanishlik darajasi, nutqlarining emotsional belgisi va so'zlashish sharoiti bilan bog'liqligi tasdiqlangan.

Jamiyat tomonidan qabul qilingan nutq xatti-harakatining barcha qoidalari birinchi navbatda nutqiy etiket qoidalari bilan tartibga solinadi. Bu odob-axloq munosabatlari namoyon bo'ladigan lisoniy vositalarning butun tizimi. Biz bu tizim elementlarini quyidagi lisoniy darajalarda amalga oshirish mumkin deb hisoblaymiz: 1) lug'at va frazeologiya darajasida: maxsus so'z va iboralar (ingl.: Good morning/afternoon/evening, thanks, please, sorry, your welcome, not at all, nice to meet you, good bye, ladies and gentlemen, Mr., Mrs., Miss, certainly/, Yes, of course, Would you like...?, Excuse me, Sir/Madam kabilar; o'zb.: Assalomu alaykum, raxmat, tashakkur, ma'zur tutasiz, kechirasiz, marxamat, uzr, xayr, sog' bo'ling, baraka toping, ofarin kabi); 2) grammatik darajada: xushmuomalalik murojaatini qo'llash uchun (o'zb.: Siz kishilik olmoshining ko'plikda ishlatilishi); buyruq gap o'rnida so'roq gaplarning murojaat o'laroq qo'llanishi (ingl.: Could you tell me ...?, Could you do me a favor...? Could you open the door, please?; o'zb.: Soatni aytib yubora olmaysizmi? Yordam bera olmaysizmi? Surila olasizmi? va kabi); 3) stilistik darajada: savodli, madaniy nutqqa talab; odobsiz va hayratga soladigan narsalar yoki hodisalarni to'g'ridan-to'g'ri nomlaydigan so'zlarni ishlatishdan bosh tortish, ya'ni evfemistik vositalar

qo'llash; (kinoya murojaat: – O'zizam ja haligidaqa odamsiz-da oka! (O'.Hoshimov.Dunyoning ishlari); uzual murojaat: – There is a strong man for you, Sybil. (J.Barrie); 4) intonatsiya darajasida: odobli intonatsiyadan foydalanish (xuddi shu gap iltimosga o'xshab yoki takallufsiz talabga o'xshab ketishi mumkin); 5) orfoepiya darajasida: ingliz tilidagi "Hello" o'rniga "Hi" yoki o'zbek tilidagi "Assalomu alaykum" o'rniga "salom"; 6) tashkiliy va kommunikativ darajada: suhbatdoshni to'xtatish, birovning suhbatiga aralashish kabi.

Nutqiy etiket birinchi navbatda xushmuomalalik vazifasini bajaradi, shu bilan birga, so'zlovchini atrofga e'tiborli bo'lishga, o'z "men"idan voz kecha olib, sherigining so'zlariga ishonishga, uning mavqei va o'zligiga nazar solishga, tinglovchining vaqtini tejab, mavzuning mohiyatiga tezroq o'tishga undaydi. Ayniqsa, qolipga kira oladigan muloqot shakllarida nutqiy etiketning roli yaqqol namoyon bo'ladi. Qoliplash kommunikativ-pragmatik tahlil bilan mustahkamlangan mavzuiy vaziyatlarni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Bular so'zlayotgan – "men"ning, eshitayotgan – "sen"ning, "bu yerda" – joyning, "hozir" – vaqtning belgilari hamda tarkibiy qismlar: "aytish" va "maqsad".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Стошкус К. Этикет в развитии общества// [в:] Гусейнов А. А. (ред.). Этическая мысль: научно - публицистические чтения. – Москва: Политиздат, 1990. – С. 241.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 61.
3. Etiquette, The New Shorter Oxford English Dictionary (2 Vol. Set; Thumb Indexed Edition) by Lesley Brown [Editor]. – Oxford: Oxford University Press, 1993. – P. 858.
4. Гольдин В. Е. Речь и этикет. – Москва: Просвещение, 1983. – С.
- 5.Формановская Н.И. Культура общения и речевой этикет. – Москва: Икар, 2005. – С. 69-70.
5. Костомаров В. Г. Русский речевой этикет // Русский язык за рубежом, 1967, № 1. – С. 56-62.
6. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол.фан. д-ри. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – Б.12.
7. Рахматиллаева Б.Х. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским): Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1992. – С.18.
8. Рахматиллаева Б.Х. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1992. – С.18.
9. Karimov, I. "O'zbek tilining lingvistik rivojlanishi". Toshkent: O'zbekiston, 1995.
10. Abdullayev, B. "Til va jamiyat". Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011
11. Holiqov, F. "Madaniyat va murojaat etiketlari". Buxoro: Ilm nashriyoti, 2017.
12. Gulomov, S. "O'zbek tilida murojaatning sotsial-lingvistik tahlili". Samarqand: Zarafshon, 2012.
13. Safarov, N. "Til odoblari va an'analar". Toshkent: Universitet, 2018.